



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



2025-yil 18-oktabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 18-oktabr

Toshkent – 2025

**O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA SO‘Z BIRIKMASINING
TURLARI
TYPES OF WORD COMBINATIONS IN THE WORKS OF OTKIR
HOSHIMOV**

10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/EEKS4165

Kurbanbayev Otabek Xakimbek o‘g‘li
Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI
O‘zbek tili kafedrasida o‘qituvchisi

Qodirberganova Dilnura Murod qizi
Nukus Davlat Pedagogika instituti 3- kurs talabasi
qodirberganovadilnura@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘tkir Hoshimov asarlari ("Dunyoning ishlari", "Ikki eshik orasi") materiallari asosida so‘z birikmasining lingvistik va uslubiy tahliliga bag‘ishlangan. Unda so‘z birikmasining nutqdagi ahamiyati, tilshunoslikdagi nazariy asoslari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda yozuvchi ijodidagi so‘z birikmalarining obrazlilik, emotsional ta‘sirchanlik va milliy ruhni ifodalashdagi o‘rni yoritilgan. Ayniqsa, sifatlovchi va iborali so‘z birikmalarining qahramon ruhiyatini va milliy tafakkurni aks ettirishdagi badiiy-estetik funksiyalari ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: so‘z birikmasi, sintaksis, tilshunoslik, frazeologizm, obrazlilik, uslubiy xususiyatlar, konnotativ ma‘no.

Annotatsion. This article is devoted to the linguistic and methodological analysis of word combinations based on the materials of the works of Otkir Hoshimov ("The Works of the World", "Between Two Doors"). It considers the importance of word combinations in speech, their theoretical foundations in linguistics. The study highlights the role of word combinations in the writer's work in expressing imagery, emotional expressiveness, and the national spirit. In particular, the artistic and aesthetic functions of adjective and phraseological combinations in reflecting the heroic spirit and national thinking are scientifically substantiated.

Keywords: word combination, syntax, linguistics, phraseology, imagery, stylistic features, connotative meaning.

Tildagi fikr ifodasining eng muhim vositalaridan biri bu so‘z birikmasidir. So‘z birikmalari tilshunoslikda mustaqil sintaktik birlik sifatida o‘rganiladi. Til - inson tafakkuri va ruhiy olamining ifodasidir. Tildagi har bir birlik, xususan so‘z birikmalari, fikrni izchil va aniq ifodalashga xizmat qiladi. So‘z birikmasi deganda ikki yoki undan ortiq mustaqil leksik birliklarning grammatik bog‘lanishda kelib, yagona mazmunni ifodalashi tushuniladi. So‘z birikmalari grammatik jihatdan gapdan kichik, lekin so‘zdan murakkab birlik hisoblanadi.

Tilshunos olimlar so‘z birikmasini aniqlashda turli yondashuvlarga ega bo‘lishgan. Masalan, Sh. Rahmatullayevning ta’kidlashicha, so‘z birikmasi ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zning grammatik bog‘lanishi orqali hosil bo‘lib, bu birliklar biror tushunchani ifodalaydi, lekin to‘liq fikrni ifodalashga qodir emas [Rahmatullayev, 2006: 248]. Shuningdek, M.Mirtojiyev, Sh.Raxmatullayev, G.Zulfiqorov singari olimlar tomonidan ham so‘z birikmasining tuzilishi, bog‘lanish usullari, sintaktik funksiyasi chuqur o‘rganilgan. O‘tkir Hoshimov o‘z asarlarida turli xil so‘z birikmalaridan keng foydalangan. U tilning imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanib, real hayotga yaqin, obrazli va ifodali nutq yaratishga erishgan. Ayniqsa, quyidagi xususiyatlar kuzatiladi:

- Obrazli ifoda vositasi sifatida sifatlovchi birikmalar: Masalan, *sokin tun, baxtli bolalik, g‘amgin nigoh* kabi birikmalar ruhiy holatni chuqur ochib beradi.

- Milliy mentalitetga xos iborali so‘z birikmalari: *Ko‘ngli cho‘kdi, yuragi siqildi, qoni qaynadi* kabi ifodalar milliy til obrazini mustahkamlaydi.

- Dialogik nutqda so‘z birikmalarining tabiiy qo‘llanishi: Qahramonlar o‘rtasidagi suhbatlarda oddiy xalq tiliga xos birikmalar (masalan: *bir amallab yetib keldi, nafsini tiyolmadi*) muhim stilistik rol o‘ynaydi.

Ular so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishiga asoslanib, murakkab sintaktik tuzilmalarning shakllanishiga xizmat qiladi. O‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan O‘tkir Hoshimov o‘z asarlarida xalqona ruh, milliy tafakkur va badiiylik uyg‘unligini ifodalashda til vositalaridan, xususan so‘z birikmalaridan mohirlik bilan foydalangan yozuvchidir. Uning asarlarida so‘z birikmalari ko‘p hollarda qahramon xarakterini ochish, ichki kechinmalarni ifodalash va muhit tasvirini berish uchun xizmat qiladi.

O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmalarining turli shakl va turlarda uchrashi, ularning muallif tiliga xosligini, o‘ziga xos badiiylik kasb etishini ko‘rsatadi. Bu birikmalar yozuvchining tasviriy vositalaridan biri sifatida xizmat qilib, o‘quvchida kuchli tasavvur va tuyg‘ular uyg‘otadi. So‘z birikmalari nutq va yozuvda ko‘p uchraydigan, mazmunni aniq ifodalashga xizmat qiladigan birliklardir. Akademik M.Mirtojiyevning ta’rifiga ko‘ra, “*So‘z birikmasi – bu mustaqil so‘zlar asosida hosil qilingan, murakkab grammatik bog‘lanishda turgan, lekin gap emas bo‘lgan birlikdir*”. O‘tkir Hoshimovning asarlarida so‘z birikmalari turlari rang-barang bo‘lib, ularning qo‘llanilishi yozuvchining uslubiy mahoratini ko‘rsatadi. U asarlarida: O‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan O‘tkir Hoshimov o‘zining chuqur mazmunli asarlari bilan o‘quvchilarning qalbidan joy olgan. Uning asarlarida xalqona iboralar, frazeologizmlar va so‘z birikmalarining o‘rni beqiyos bo‘lib, ular orqali yozuvchi milliy ruh, ma’naviy qadriyatlar va insoniylik fazilatlarini yuksak badiiy mahorat bilan ifoda etgan. Adibning “Dunyoning ishlari”, “Ikki eshik orasi”, “Bahor qaytmaydi” kabi asarlarida xalq tiliga xos so‘z birikmalarining keng qo‘llanilishi uning uslubiy yondashuvining yorqin namunasi. So‘z birikmalari nafaqat tilning grammatik qurilishi, balki uning badiiy-estetik imkoniyatlarini ham belgilaydi. O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmalarining uslubiy xususiyatlarini o‘rganish, ularni tahlil qilish va zamonaviy ta’lim metodlari orqali o‘quvchilarga yetkazish bugungi

kunda dolzarb masalalardan biridir. Ushbu bitiruv malakaviy ishida O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmalarining uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi hamda ularni o‘rgatishning zamonaviy usullari taklif etiladi. O‘tkir Hoshimov o‘zbek adabiyotining XX asr oxiri va XXI asr boshlarida yuksak cho‘qqiga chiqqan, xalq dardi, ruhiy kechinmalari va ijtimoiy haqiqatni badiiy ifodalashda noyob uslubga ega ijodkorlardandir [Tursunov, 2018: 149]. U 1941-yil 5-avgust kuni Toshkentning Do‘mbirobod mahallasida tug‘ilgan. Bolalik yillari urushdan keyingi og‘ir ijtimoiy va iqtisodiy sharoitda o‘tgan. Aynan shu davrda uning ruhiyatiga ta’sir qilgan ko‘plab voqealar keyinchalik adib asarlarida badiiy ifodasini topdi. O‘tkir Hoshimovning ilk adabiy mashqlari gazeta sahifalarida boshlangan bo‘lsa-da, 1962-yilda chop etilgan “Po‘lat chavandozlar” ocherki uning haqiqiy adabiy sahnaga kirib kelishiga asos bo‘ldi. U 1964-yilda Toshkent Davlat Universitetining jurnalistika fakultetini tamomlaganidan so‘ng, “Toshkent haqiqati”, “Sharq yulduzi” kabi nufuzli nashrlarda faoliyat olib borgan. Uning yozuvchi sifatida tanilishiga sabab bo‘lgan asarlardan biri “Cho‘l havosi” bo‘lib, bu qissada u bolalik taassurotlarini, urushdan keyingi qiyinchiliklarni juda samimiy va xalqona uslubda tasvirlaydi. Keyinchalik “Bahor qaytmaydi”, “Qalbingga quloq sol”, “Ikki eshik orasi”, “Dunyoning ishlari” kabi asarlar orqali u o‘zbek adabiyotiga o‘ziga xos uslub, badiiy til va uslubiy maktab olib keldi.. O‘tkir Hoshimov ijodining markazida insoniylik, haqiqatparastlik, ma’naviy poklik, mehr-oqibat kabi umumbashariy g‘oyalar turadi. Uning har bir asari zamon, makon va jamiyatdagi muammolarni ochiq va jo‘n tilda yoritib beradi. Asarlarda oddiy odamlar, ularning orzulari, dardlari, quvonchlari markazga chiqariladi. Masalan, “Bahor qaytmaydi” romanida urushdan keyingi yillarda yoshlarning orzu-umidlari, jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizliklar fonida shaxsiy fojialar tasvirlanadi. “Ikki eshik orasi” romanida esa odamning hayot va o‘lim oralig‘idagi botiniy kechinmalari falsafiy mushohada bilan berilgan. Bu asarda hayotiy haqiqatlar, insonning o‘ziga-o‘zi tanbeh berishi, tavba va nadomat ruhiy-psixologik tasvir orqali chuqur ifodalanadi. Yozuvchi badiiy tilga juda katta e’tibor qaratgan. U o‘z asarlarida xalq tilidan, maqollar, iboralar, so‘z birikmalaridan keng foydalangan. Bu esa uning matnlarini nafaqat adabiy, balki lingvopoetik tahlil uchun ham nihoyatda qimmatli manbaga aylantiradi. Yana bir muhim jihat – O‘tkir Hoshimov o‘z asarlari orqali o‘zbek o‘quvchisiga nasihat bermaydi, balki voqealarni tahlil qilish, xulosa chiqarish imkoniyatini o‘quvchining o‘ziga qoldiradi. Bu jihat uning asarlarini didaktik bo‘lishdan saqlab qoladi va ularni zamonaviy psixologik realizmga yaqinlashtiradi. O‘tkir Hoshimov tilida aynan so‘z birikmalarining o‘ziga xos badiiy va estetik yuk ko‘tarishi kuzatiladi. Masalan, u turli fikr, kechinma va hislarni ko‘p hollarda oddiy, ammo chuqur ma’noli xalqona iboralar orqali ifodalaydi: “Hayot – bu ikki eshik orasi, lekin qaysi eshikdan kirasan-u, qaysisidan chiqishingni o‘zing tanlamaysan.” Bu gapda “ikki eshik orasi” frazasi hayotning vaqtinchalikligi, o‘tkinchiligini, hamda inson irodasining cheklanganligini metaforik tarzda anglatadi. Bu yerda frazeologik ifoda vositasi orqali konnotativ ma’no – ya’ni yashirin, emotsional va falsafiy yuk orttirilgan. Shuningdek, yozuvchi o‘z asarlarida mahalliy lahja elementlarini, dialektal so‘zlarni, ayniqsa

Toshkent atrofidagi xalq nutqida uchraydigan iboralarni badiiy matnga muvaffaqiyatli singdirgan. Bu holat uning uslubini tabiiy, xalqona va sodda ko‘rsatadi. Ko‘p hollarda O‘tkir Hoshimov o‘z asarlarida ziddiyatli, dramatik yoki fojiali holatlarni yumor, istehzo yoki kinoya bilan yengillashtiradi. Bunday yengil, biroq teran ma’noga ega jumlar, asosan, so‘z birikmalari orqali tuzilgan bo‘ladi: “Odam yuragida ko‘p narsani ko‘mish mumkin, lekin har kuni yoningda yuradigan odam yuragidan yashira olmaysan.” Bu kabi iboralarda obrazlilik kuchli bo‘lib, ular o‘quvchiga ta’sirchanlikni oshiradi, tasvirlangan voqea va kechinmalarning hayotiylikni oshiradi. Yana bir jihat shundaki, yozuvchi so‘z birikmalari orqali obraz yaratish, ruhiy holatni tasvirlash, voqeani muayyan kayfiyatda berish imkonini kengaytiradi. Shu sababli O‘tkir Hoshimov uslubida so‘z birikmalari faqat grammatik birlik emas, balki emotsional, estetik va ijtimoiy kontekstni belgilovchi vosita sifatida ishlaydi.

O‘tkir Hoshimov ijodida til nafaqat aloqa vositasi, balki madaniy, ma’naviy va estetik qadriyatlarni ifodalovchi asosiy unsurlardan biri hisoblanadi. U o‘zbek adabiy tilining imkoniyatlaridan keng foydalanib, har bir obrazga, voqelikka va ruhiy holatga mos tilda ifoda topishga intiladi. Bu xususiyat yozuvchining til madaniyati darajasini yaqqol namoyon etadi. Quyidagi misolda badiiy-estetik ifoda va milliy ruh uyg‘unligiga e’tibor qaratsak: “Maktabdan qaytib kelganimda onam doim g‘ami yelkasidan tushmaganday ko‘rinardi. U bilan salomlashganimda ham, nigohi deraza ortiga qadalgan bo‘lardi. Shu nigohni hech qachon unutmamdim...” Bu parchada “g‘ami yelkasidan tushmaganday” so‘z birikmasi – tashbih orqali og‘ir ruhiy holat, ichki iztirob ifodalangan. Bu yerda fonetik urg‘u ham, sintaktik tuzilma ham matn mazmuniga xizmat qilmoqda. Ushbu iboraning obrazlilik darajasi baland bo‘lib, o‘quvchini ruhiy holatga yaqinlashtiradi. Bu holatda so‘z birikmasi informativ emas, balki hissiy, konnotativ yukni ko‘taradi. Yana bir misol: “Bu dunyoda eng og‘ir yuk – vijdon azobi ekan.” Bu ibora qisqa, ammo teran ma’noga ega. “Eng og‘ir yuk” iborasi metaforik xarakterga ega bo‘lib, “vijdon azobi” bilan bog‘langanda, o‘quvchida kuchli psixologik ta’sir uyg‘otadi. Bu yozuvchining tilda emotsional-estetik yukni badiiy shaklda ifodalash mahoratidir. Shuningdek, Hoshimov tilida xalqona iboralar, arxaik so‘zlar, konnotativ ma’noga ega birliklar juda ko‘p ishlatiladi. Masalan, “ko‘zlarida mung”, “dilida dovul” kabi so‘z birikmalari orqali u ruhiy holatlarni ko‘proq tasvirlovchi vositalar sifatida foydalanadi. Bu iboralar turli asarlarda takrorlanmas bo‘lib, har bir holatda yangi emotsional va badiiy rang olib keladi. O‘tkir Hoshimov ijodi o‘zbek adabiyotining eng samimiy, xalqparvar va insonparvar ruhdagi asarlari qatoridan mustahkam o‘rin egallagan. Uning har bir asari o‘zbek xalqining qadriyatlari, urf-odatlarini, axloqiy me’yorlari va hayotiy tajribalari asosida yaratilgan. Ayniqsa, bugungi yosh avlodni ruhiy tarbiyalash, ijtimoiy mas’uliyatni anglatish va o‘zligini unutmaslikka undashda yozuvchining asarlari beqiyos ahamiyatga ega [Xolmurodov, 2018: 128]. Uning qahramonlari — oddiy insonlar, ammo ularda katta ma’naviy kuch mujassam. Masalan, “Ikki eshik orasi” romanidagi bosh qahramon Yusufbek hoji kabi obrazlar bugungi yoshlar uchun sabr, vijdon, to‘g‘rilik, e’tiqod va tavba fazilatlarining hayotiy namunalari.

O‘quvchilar bu kabi obrazlar orqali: axloqiy va ruhiy tarbiya oladilar; vijdon, halollik, mehr-oqibat kabi tushunchalarni badiiy kontekstda tushunadilar; til madaniyati, badiiy nutq va ifoda boyligi haqida tasavvur hosil qiladilar; analitik o‘qish va tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantiradilar. Yozuvchining so‘z birikmalarini ishlatishdagi mahorati esa til o‘rgatish jarayonida o‘qituvchilarga ko‘plab uslubiy, uslubiy-didaktik materiallar taqdim etadi. Uning tilida ishlatilgan ko‘p ma’noli, konnotativ, ifodali birliklar tilshunoslik darslari uchun ham qimmatli manbadir. Masalan, quyidagi iboralarni o‘quvchilar bilan tahlil qilish orqali: “Qalbmida nimadir yig‘lar edi...”, “So‘z aytishga tili bormadi...”, “Bu dunyoda yuragim bo‘lib qolgan odamlar bor...” – kabi iboralar orqali emotsional-fikriy tahlil qilish, so‘z ohangi, mazmuni, ko‘chma ma’nolari ustida ishlash mumkin. Bu esa o‘quvchilarning estetik didini, til sezgirligini, ifodaviy savodxonligini oshiradi. So‘z birikmalari – ikki yoki undan ortiq so‘zning sintaktik jihatdan bog‘lanib, bir butun ma’no ifodalashidir. Ular gap bo‘la olmaydi, ammo gapning tarkibiy qismini tashkil etadi. So‘z birikmalari tilda fikrni aniqroq, to‘liqroq ifodalashda xizmat qiladi. Ayniqsa, badiiy adabiyotda so‘z birikmalarining obraz yaratish, ruhiy holatni ifodalash, hissiyotlarni yetkazishdagi o‘rni beqiyosdir. So‘z birikmalari turli nutq uslublarida har xil vazifalarni bajaradi:

Nutq uslubi	So‘z birikmalarining xususiyati
Ilmiy uslub	Aniqlik, izchillik, standart tuzilma
Rasmiy uslub	Quruq, bevosita, shakllangan shakl
Publitsistik uslub	Qisqa, lo‘nda, ta’sirchan birliklar
Badiiy uslub	Obrazlilik, ko‘p ma’nolilik, ko‘chma ma’no, ekspressivlik
So‘zlashuv uslubi	Sodda, xalqona, emotsional, qisqartirilgan shakllar

Badiiy asarlarda so‘z birikmalari fikrning badiiy-estetik qiyofasini yaratishda faol ishtirok etadi. O‘quvchi tasvirlangan holatni o‘z tasavvurida gavdalantirish, obrazni ko‘z oldiga keltirish uchun aynan so‘z birikmalariga tayanadi. Masalan, quyidagi badiiy iboralarni ko‘raylik: “Ko‘ngli g‘ira-shira” – bu yerda “g‘ira-shira” odatda yorug‘lik uchun ishlatilsa-da, ko‘ngilga nisbatan qo‘llanib, konnotativ ma’no yuklaydi: ruhiy bezovtalik, noaniqlik, xavotir. “Ko‘zlarida mung” – bu birikma insonning ichki iztirobini bevosita emas, balki nozik obraz orqali ifodalaydi. “Dilida dovul” – ichki iztirob va ruhiy tushkunlik kuchli metaforik ifoda bilan berilgan. Bu kabi so‘z birikmalari faqat grammatik birlik emas, balki badiiy-estetik ifoda vositalaridir. Ular orqali yozuvchi obraz ruhiyatini, voqea dinamikasini, hatto o‘zining mualliflik munosabatini ham ifodalay oladi.

O‘zbek tilshunosligida so‘z birikmalarining o‘rganilishi. So‘z birikmalarining nazariy jihatlari o‘zbek tilshunosligida ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, G‘.Zaripov, Sh.Rahmatullayev, A.Muxtorov, T.Mirzayev,

N.Mahmudov kabi olimlar o‘z tadqiqotlarida so‘z birikmasining grammatik turlari, semantik jihatlari, uslubiy vazifalari haqida fikr yuritganlar. G.Zaripov “So‘z birikmalari sintaksisi” nomli asarida so‘z birikmalarini ikki asosiy guruhga ajratadi: Erkin so‘z birikmalari – har qanday kontekstda hosil bo‘lishi mumkin (masalan: katta uy, shirin gap); Barqaror birikmalar – o‘zgarmas birlik bo‘lib, ma’no butunligini saqlaydi (masalan: ko‘ngli to‘lmoq, yuragi orqaga tortmoq). Bu nazariy asoslar yozuvchilarning badiiy tilini tahlil qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. O‘tkir Hoshimov badiiy nutq ustasi sifatida har bir so‘zni joyida, har bir iborani vaziyatga mos holda tanlaydi. Uning asarlarida so‘z birikmalari — bu shunchaki grammatik birlik emas, balki ruhiy holat, ichki kechinma, obraz xarakteri va muallif munosabatini ifodalovchi stilistik vositadir [Karimov, 2014: 45]. O‘tkir Hoshimov o‘z asarlarida uchraydigan so‘z birikmalari, asosan, quyidagi uslubiy xususiyatlarga ega: Obrazlilik va emotsional ta’sirchanlik. So‘z birikmalari ko‘pincha obraz yaratish va holatni emotsional tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Masalan: “Ko‘ngli yilt etib ketdi” – bu ibora quvnoqlik, qalbda uyg‘ongan iliqlikni obrazli ifodalaydi. “Vijdoni qaqshadi” – kuchli ichki iztirob, afsus, pushaymonlikni ifodalovchi birlik. Bunday birikmalar fonetik jihatdan ham hissiyot yukiga ega: “yilt” tovushi birdaniga o‘zgarish holatini bildirsa, “qaqshadi”da kuchli ta’sir ohangi mavjud. Yozuvchi ko‘pincha xalqona, og‘zaki nutqdan kirib kelgan so‘z birikmalarini o‘z uslubiga singdiradi: “Ko‘ngli og‘ridi”, “Yuragi orqaga tortdi”, “Tilining uchi bilan” — bu kabi iboralar xalq nutqining badiiylashtirilgan shakli bo‘lib, milliy ruhni kuchaytiradi. Masalan, *“Bahor qaytmaydi”* romanida qahramonning hayoti va kechinmalari aynan mana shu xalqona iboralar orqali aniq, samimiy va yurakka yaqin tasvirlanadi. O‘tkir Hoshimov asarlarida ichki monologlar ko‘p [Hasanov, 2016: 78]. Bu monologlarda ishlatilgan so‘z birikmalari juda katta uslubiy yuk ko‘taradi: “Odam ba’zan o‘zini o‘zi tushunmaydi. Yig‘lamoqchi bo‘ladi, ammo ko‘zlari quruq qoladi.” Bu yerda “ko‘zlari quruq qoladi” iborasi emotsional portlash emas, balki ichki sokin azobni ifodalaydi. So‘z birikmasi orqali holat kuchaytirilgan, o‘quvchi esa buni yurakdan his qiladi. Hoshimov asarlaridagi muallif nutqi ham so‘z birikmalar bilan boyitilgan bo‘lib, ular uslubning badiiy-estetik yukini oshiradi: “Hayotda ba’zi og‘ir so‘zlar bor – aytilmagan bo‘lsa yaxshi.” “Ona ko‘ngli – daryodek, qirg‘og‘idan o‘tib bo‘lmaydi.” Bu yerda “og‘ir so‘zlar”, “ona ko‘ngli – daryodek” birikmalari ramziy va konnotativ ma’no kasb etadi. Ular orqali hayotiy haqiqat va psixologik holat umumlashgan tarzda ifodalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili Toshkent: Universitet, 2006.
2. Tursunov, J. Adabiy til va uslubshunoslik. Toshkent: Akadernashr, 2018.
3. Xolmurodov, T. O‘zbek adabiy tilining uslubiy normativlari. Toshkent: Sharq, 2018.
4. Karimov, I. So‘z birikmalarining badiiy-uslubiy ahamiyati. Toshkent: Sharq, 2014.
5. Hasanov, A. O‘zbek tilining uslubiy tahlili. Toshkent: Fan, 2016.

MUNDARIJA

<i>Sirojiddinov Sh.</i>	O‘zbek tili – xalqaro maydonda!	
I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI		
<i>Ashirboyev Samixon</i>	O‘zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo‘lida	6
<i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i>	O‘zbek tilida kognitiv metonimiya	11
<i>Juraqobilova Xamida</i>	She‘riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta‘siri	17
<i>Mustafayev Fizuli</i>	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqında	24
<i>Jabborov B., Sharipova S. Istamova SH.</i>	O‘zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o‘rni	32
<i>Turdiboyev Tohir</i>	Yordamchi so‘zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
<i>Abjalova Manzura</i>	Hozirgi o‘zbek tili leksik sathiga doir ba‘zi masalalar	42
<i>Sheronov Boyirboy</i>	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
<i>Madjidova Dilorom</i>	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
<i>Tolipova Dildora</i>	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
<i>Elova Dilrabo</i>	O‘zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
<i>Abdullayev Jumanazar</i>	Yangi O‘zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
<i>Israilova Saodat</i>	Turk va o‘zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
<i>Kasimova Ziyoda</i>	Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
<i>Baxodirova Shaxlo</i>	Lakuna va realiya munosabati	92
<i>Hakimov Dilshod</i>	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
<i>Kurbanbayev Otabek,</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107

<i>Qodirberganova Dilnura</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	
<i>Allaquliyeva Qunduz</i>	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
<i>Isoqulova Qunduz</i>	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
<i>Ismayilli Ayshen</i>	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xūlasə	122
<i>Davronova Zarnigor</i>	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
<i>Muzaffarova Zarrina</i>	Metonimiyaning konseptual modellari	136
<i>Yusupova Aziza</i>	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
<i>Mamarasulova Maftuna</i>	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
<i>Abdurasulova Dilnoza</i>	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
<i>Soqiyeva Shirin</i>	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
<i>Abruyeva Zaxro</i>	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
<i>Bovmanova Bashorat</i>	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
<i>Jumaniyozova Charos</i>	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
<i>Xayrullayeva Ra’no</i>	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
<i>Tursunova Sojidxon</i>	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177
<i>Utegenova O‘g‘iloy</i>	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
<i>Maxmudova Matluba</i>	Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
<i>Xolmamatova Sarvinozxon</i>	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning	191

	o‘rganilganlik darajasi hamda turlari	
<i>Turg‘unboyeva Dilnoza</i>	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o‘rni	199
<i>O‘ralova Nargiza</i>	Parsellyatsiya va metaforaning o‘zaro aloqadorligi	204
<i>Jabborova Aziza</i>	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
<i>Odilova Dilobar</i>	Jahon tilshunosligida o‘xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
<i>Nazarov Qobilbek</i>	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
<i>Mullaboyeva Shirin</i>	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
<i>G‘aybullayev Erkinjon</i>	O‘zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho‘lpon asarlari misolida	230
<i>Oripova Mavluda</i>	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o‘ziga xoslik	240
<i>Otaxonova Sohiba</i>	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o‘rni	245
<i>Shodmonaliyeva Yulduz</i>	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o‘zaro munosabati	250
<i>Sobirova Maftuna</i>	Konchilik terminotizimi va uning o‘zbek leksik tizimidagi o‘rni	256
<i>Umarova Shahzoda</i>	O‘zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o‘rni	260
<i>Turg‘unova Maftuna</i>	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o‘rni	270
<i>Muratova Nafisa</i>	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik vositalarning o‘rni	274
<i>Murotov Hamro</i>	Reklama matnlarining tasnifi	280
<i>Normuminov Laziz</i>	Qo‘chqor Norqobil hikoyalarda xalqona so‘zlashuv, ibora va maqollarning qo‘llanishi	285
II SHO‘BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.		

<i>Xolmanova Zulxumor</i>	Tilning ma’lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
<i>Qurbonova Munavvara</i>	Ontolingvistika va pragmalolingvistika munosabatida deyktik birliklarning o‘rni	297
<i>Ruzibaeva Nigoraxon</i>	Psychological needs in the language classroom	303
<i>Abdurahmonova Muqaddas</i>	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
<i>Umurzoqova Marhabo</i>	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
<i>Abjalova Manzura</i>	O‘zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta’limiy tizim	321
<i>Ruzmetova Novval</i>	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
<i>G‘ulomova Nargiza</i>	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma’lumotlarning muhimligi	335
<i>Dedaxanova Muazzam</i>	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
<i>Shamsiyeva Manzura</i>	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
<i>Xudaykulova Shaxnoza</i>	O‘zbek tili diskursida global qadriyatlarining aksiolingvistik integratsiyasi	353
<i>Ibragimova Sayyora</i>	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
<i>Tilabaev Kamil</i>	Благодарные: из эмоционального опыта изучения узбекского языка как второго	361
<i>Alimardanov Elyor</i>	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
<i>Bozorova Sabohat</i>	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
<i>Abduvoxidova Mavzuna</i>	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
<i>Mamadayupova Vasila</i>	Katta yoshdagilarning xorijiy til o‘rganishi	381
<i>Azizova Feruza</i>	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga	385

	ta’siri: XXI asrda yozma va og‘zaki muloqotning transformatsiyasi	
<i>Abdullayeva Roxila</i>	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
<i>Yusupova Shahzoda</i>	Suggestiv nutq ta’sirchanligini oshirishda sifatlarning o‘rni	393
<i>Mamirova Xayriniso</i>	Ko‘p ma’noli so‘zlarni qayta ishlashning gibridd modellari	398
<i>Nabiyeva Parvina</i>	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
<i>O‘rinova Zarifa</i>	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
<i>Rayimjonova Matluba</i>	Rauf Parfi she’riyati leksikasini chastotali lug‘at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
<i>Turobova Nargiza</i>	Ulug‘bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
<i>Abdullajonova Madina</i>	“Fiziologik xatolar”ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
<i>Pulatova Umriniso</i>	Yoshlar slengining ayrim o‘ziga xos hududiy xususiyatlari	428
<i>Imomova Ismigul</i>	Dramatik matnlarda qo‘llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
<i>Arolova Nafisa</i>	Til o‘zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
<i>Tursunboyeva Fayiza</i>	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o‘rni	443
<i>Amrullayeva Mohinur</i>	O‘zbek tilidagi ayrim fe’l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
<i>Mirnosirova Dilbar</i>	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
<i>Aminova Zilola</i>	Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘zga tilli o‘quvchilarning nutqini o‘stirish	462
<i>Muratova Ademi</i>	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
<i>Umurzakova Zuxraxon</i>	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
<i>Maxmudjonova</i>	Tilshunoslarga bog‘lab berilgan tomorqa...	477

<i>Nargizaxon</i>		
III SHO‘BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI		
<i>Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon</i>	O‘zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
<i>Mirzodjanova Malika</i>	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
<i>Komilova Gavharoy</i>	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
<i>Pulatova Zamira</i>	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
<i>Moldokulova Elina</i>	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
<i>Yo‘ldoshxonov Javohirbek</i>	Микротопонимы как ономастическая реалья: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
<i>Abduqodirova Zebo</i>	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509
<i>Otamirzayeva Sug‘diyona</i>	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
<i>Sayfiyeva Komila</i>	Fitonim komponentli o‘zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
<i>Madjidova Maftuna</i>	Лингвосоматические единицы которые характерные для арабской культуры	529
<i>Xasanova Sohibjamol</i>	Ingliz va o‘zbek tillarida “yaxshilik” va “yomonlik” kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
<i>Lafasova Mavjuda</i>	Xorij tilshunosligida o‘xshatishlar tadqiqi	539

<i>Olimova Mushtariybonu</i>	O‘zbek va ingliz xalq maqollaridagi “omad” va “omadsizlik” konseptlarining qiyosiy tahlili	544
IV SHO‘BA. O‘ZBEK TILINING XORIJDA O‘QITILISHI VA O‘ZARO HAMKORLIK MASALALARI		
<i>Ahmet Akalin</i>	Kültür taşıyıcısı olarak özbek dilinin diplomatik fonksiyonu	549
<i>Rahmonqulov Abdunazar</i>	O‘zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
<i>Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari</i>	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
<i>Xakimova Mavzunadjon</i>	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
<i>Musurmankulova Shaxribon</i>	Türk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
<i>Xodjayeva Mashhura</i>	Влияние глобализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
<i>Erkaboeva Khavojon</i>	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581
<i>Axmedova Niluzar</i>	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o‘zbek tillari misolida	584
V SHO‘BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI		
<i>Tanju Seyhan</i>	Ali şir Nevâyî ve üslubunda fiillerin yeri	589
<i>Abdushukurov Baxtiyor</i>	O‘zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
<i>Farhad Rahimi</i>	Nezrali’nin çağatay türkçesi sözlüğünün yanlışları üzerine II	611
<i>Vahidə Cəfərzadə</i>	Mustafa Zəririn “Siyərün-nəbi” əsəri haqqında bəzi qeydlər	640

<i>Muhammadiyeva Dilafro ‘z</i>	“Boburnoma” parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
<i>Bo‘ronov Anvar</i>	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
<i>Xo‘janiyazova Shahnoza</i>	Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
<i>Xolmurodova Mushtariy</i>	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
<i>Mirzayeva Ulker</i>	Yunan manbələrində işlənən Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili	676
<i>Babazade Rahshane</i>	Mustafa Zəririn “Yüz hədis və yüz hekayə” əsərində zərflər	684
<i>Yodgorov Hamid</i>	“Qo‘noq” umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
<i>O‘razova Iqbol</i>	Frazemalar kognitiv semantikaning o‘rganish obykti sifatida	701
<i>Azizzade Turkan</i>	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqında	705
<i>Saygin Muhterem</i>	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay, Görge Bay)	711
<i>Meryem Hamişoğlu</i>	Türkçenin ilk sözlüğü <i>Dîvânu lugâti't-türk</i> 'ten özbek türkçesine bitki adları	718
<i>Bakirov Qudratillo</i>	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o‘rganilishi	734
<i>Sattorova Shahnoza</i>	O‘zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o‘simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
<i>Maqsudova Feruza</i>	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o‘rganish obykti sifatida	745
<i>Azizova Nilufar</i>	“Devonu lug‘otit turk”dagi o‘z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
<i>O‘tkirbek Muhammad Sobir</i>	Arba’in she’rlarda “hayit” so‘zining lingvopoetik timsollari	756
<i>Naimaxon Siddiqova</i>	Eskirgan so‘zlarning eskirmagan ma’nolari	760
<i>Qasimova Sema</i>	The stylistic, linguistic and psycholinguistic analysis of femalemale forms of address in the texts	766

	of the book of “Dede Qorqud”	
<i>Roza Turdiyeva</i>	O‘zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	775